



## XALQARO ILMIIY MAQOLA

### MARKAZIY OSIYO GEOSIYOSATIDAGI KUCHLAR MUVOZANATI VA O‘ZBEKISTONNING MINTAQAVIY SIYOSATI

#### THE BALANCE OF POWER IN CENTRAL ASIAN GEOPOLITICS AND UZBEKISTAN'S REGIONAL POLICY

*Raxmanov Nuriddin Ko‘chimboyevich*

*Osiyo Xalqaro Universiteti 1-kurs magistranti, Buxoro*

*70220301 – Tarix mutaxassisligi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida hukm suruvchi geosiyosiy kuchlar muvozanati, ushbu muvozanatga ta'sir etuvchi omillar va O‘zbekistonning mintaqaviy siyosati tahlil qilinadi. Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqining mintaqadagi manfaatlari va strategiyalari ko‘rib chiqiladi. Mintaqaviy xavfsizlik, integratsiya hamda O‘zbekistonning tashqi siyosiy yo‘nalishlari geosiyosiy tahlil metodologiyasi asosida o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** geosiyosat, Markaziy Osiyo, kuchlar muvozanati, mintaqaviy xavfsizlik, O‘zbekiston tashqi siyosati, mintaqaviy integratsiya.

**Abstract:** This article analyses the balance of geopolitical forces in Central Asia, the factors influencing this balance, and Uzbekistan's regional policy. The interests and strategies of Russia, China, the United States and the European Union in the region are examined. Regional security, integration and Uzbekistan's foreign policy orientations are studied on the basis of geopolitical analysis methodology.

**Keywords:** geopolitics, Central Asia, balance of power, regional security, Uzbekistan's foreign policy, regional integration.



## 1. Kirish

Markaziy Osiyo – dunyo geosiyosiy arenasining eng muhim va murakkab mintaqalaridan biri. Mazkur mintaqaning geosiyosiy ahamiyati uning strategik joylashuvi, boyluk resurslari va tarixiy-madaniy merosi bilan belgilanadi. XIX asrda Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasida «Katta o‘yin» nomini olgan geosiyosiy raqobat maydoniga aylangan mintaqa bugungi kunda ham turli kuchlar manfaatlarining to‘qnashuv nuqtasi bo‘lib qolmoqda.

Geosiyosat fanining klassiklaridan biri ingliz olimi Makkinder o‘zining «Oraliq Makon» nazariyasida «Kim Sharqiy Yevropada hukmronlik qilsa, u Oraliq Makonda ham hukmronlik qiladi. Kim Oraliq Makonda hukmron bo‘lsa, u Jahon Orolida ham hukmronlik qiladi. Kim Jahon Orolida hukmron bo‘lsa, u jahonda hukmronlik qiladi», deb ta’kidlagan edi.<sup>1</sup> Ushbu klassik formulaning zamonaviy versiyasida Markaziy Osiyo hamon strategik ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Maqolaning maqsadi – Markaziy Osiyo geosiyosatidagi asosiy tendensiyalarni, kuchlar muvozanatini va O‘zbekistonning mintaqaviy siyosatidagi o‘rnini ilmiy-nazariy asosda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini geosiyosiy tahlil, tizimli tahlil va qiyosiy siyosatshunoslik metodlari tashkil etadi.

## 2. Markaziy Osiyo geosiyosatining nazariy asoslari

Geosiyosat – bu amaliy ijtimoiy-siyosiy fan sohasi bo‘lib, u «xalqaro hayot, mintaqaviy va global xavfsizlik masalalarini, davlatning diplomatik va tashqi iqtisodiy faoliyatini hududiy imperativlar va geografik joylashuvga bog‘lab turib o‘rganadi».<sup>2</sup> Ushbu ta’rif geosiyosiy tahlilning ko‘lami va metodologiyasini aniq belgilab beradi.

Markaziy Osiyo mintaqasining geosiyosiy ahamiyatini bir nechta asosiy omillar belgilaydi. Birinchidan, geografik joylashuv: mintaqa Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyo o‘rtasidagi strategik yo‘llarning to‘qnashuv



nuqtasida joylashgan. Tarixchi Arnold Toynbi ta'kidlaganidek, «Oks-Yaxsart havzasi (ya'ni Amudaryo va Sirdaryo oralig'i) barcha muhim yo'llar kesilgan joy» ekanligi bilan jahon ahamiyatiga ega.<sup>3</sup>

Ikkinchidan, tabiiy resurslar: Markaziy Osiyo mintaqasi katta neft, gaz, oltin, uran va boshqa strategik xom ashyo zaxiralariga ega. Kaspiy dengizi va uning atrofidagi energetika resurslari yirik davlatlar uchun katta strategik qiziqish uyg'otadi. Uchinchidan, demografik salohiyat: 75 million kishidan oshiq aholiga ega mintaqa yirik mehnat bozori va iste'molchilar salohiyatini ifodalaydi. To'rtinchidan, Afg'onistonga yaqinlik: Afg'onistondagi barqarorlashmaslik Markaziy Osiyo xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mintaqaviy geosiyosiy tahlilning muhim qismi – mintaqashunoslik. Muhammadsidiqovning belgilashicha, «mintaqa ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, ma'lum makon va zamon qolipidagi aniq hududni bildiradi».<sup>4</sup> Xalqaro mintaqashunoslik nuqtai nazaridan Markaziy Osiyoni faqat besh sobiq sovet respublikasi bilan cheklash to'g'ri emas – Afg'oniston va Xitoyning g'arbiy hududlari ham mintaqaning organik qismidir.

### **3. Asosiy geosiyosiy kuchlar va ularning mintaqadagi strategiyalari**

Markaziy Osiyodagi «yangi katta o'yin»da to'rtta asosiy kuch raqobat olib boradi: Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi. Rossiya Federatsiyasi mintaqani tarixan o'z geosiyosiy «yaqin atrofi» sifatida ko'rib keladi. Rossiyaning mintaqadagi asosiy strategiyalari: MDH va KTXS doirasida ko'p tomonlama hamkorlik; Evrosiyo iqtisodiy ittifoqi orqali iqtisodiy integratsiya; Tojikiston va Qirg'izistondagi harbiy bazalar orqali harbiy mavjudlik.

Xitoy Xalq Respublikasi «Bir kamar – bir yo'l» (BKY) tashabbusi orqali Markaziy Osiyo bilan aloqalarini chuqurlashtirib bormoqda. Xitoy yondashuvida iqtisodiy diplomatiya, infratuzilma investitsiyalari va savdo aloqalari ustuvor o'rin



egallaydi. ShHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti) doirasida xavfsizlik hamkorligi ham kuchayib bormoqda.

AQShning Markaziy Osiyo strategiyasi «Ipak yo‘li strategiyasi» konsepsiyasida o‘z ifodasini topgan. Safoevning ta'kidlashicha, «xalqaro xavflarga qarshi dunyo miqyosida kurash nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo hozirgi dunyoda muhim rol o‘ynashi Vashingtonda tobora keng e'tirof etilmoqda».<sup>5</sup> AQSh uchun terrorizmga qarshi kurash, demokratizatsiya va energetika diversifikatsiyasi asosiy maqsadlar bo‘lib qolmoqda.

Yevropa Ittifoqining yondashuvi «yumshoq qudrat» (soft power) tamoyiliga asoslanib, demokratik qadriyatlar, huquq ustuvorligi va iqtisodiy islohotlarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan. «YeI bilan strategik sheriklik, teng huquqlilik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan munosabatlarning sifat jihatidan yangi darajasiga erishish Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishidir».<sup>6</sup>

#### **4. O‘zbekistonning geosiyosiy mavqei va mintaqaviy siyosati**

O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida aholisi va iqtisodiy salohiyati bo‘yicha yetakchi davlat hisoblanadi. Mamlakatning geosiyosiy mavqei quyidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan belgilanadi: mintaqaning geografik markazida joylashuvi; barcha Markaziy Osiyo davlatlari bilan chegaradoshlik; Farg‘ona vodiysi – mintaqaviy demografik va iqtisodiy markaz ustidan ta'siri; Navoiy va Angren kabi strategik sanoat markazlarining mavjudligi.

O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: birinchidan, ko‘p vektorli diplomatiya – barcha yirik kuchlar bilan muvozanatli munosabatlar; ikkinchidan, «ijobiy betaraflik» – harbiy-siyosiy bloklarga qo‘shilmaslik; uchinchidan, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish; to‘rtinchidan, xalqaro tashkilotlar va BMT mexanizmlaridan foydalanish.



Rasulovning ta'kidlashicha, zamonaviy diplomatiyaning asosiy shakllari orasida «xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish» muhim o'rinni egallaydi.<sup>7</sup> O'zbekiston ushbu tamoyilga amal qilib, BMT, ShHT, EAIQ, MDH kabi ko'plab xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etmoqda.

### **5. Mintaqaviy xavfsizlik va geosiyosiy muammolar**

Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikka tahdidlar murakkab va ko'p qirrali xususiyatga ega. Asosiy tahdidlar qatoriga quyidagilar kiradi: xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm; narkotik moddalar tranziti (Afg'oniston orqali); suv resurslari taqsimotidagi davlatlararo ziddiyatlar; chegaraviy nizolar va etnik qarama-qarshiliklar.

Safoev xulosasiga ko'ra, «xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlarni tahlil qilish Markaziy Osiyoga oid tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim. Xalqaro xavflarning birortasini ham alohida olingan bir mamlakat doirasida aks ettirish mumkin emas».<sup>8</sup> Bu esa mintaqaviy hamkorlik zaruriyatini yanada kuchaytiradi.

### **6. Xulosa**

Markaziy Osiyo geosiyosatining hozirgi holati tahlili quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi:

Birinchidan, mintaqada Rossiya, Xitoy, AQSh va Yevropa Ittifoqi o'rtasidagi geosiyosiy raqobat davom etmoqda. Mintaqa davlatlari uchun ushbu muvozanatdan strategik jihatdan foydalanish muhim diplomatik vazifadir.

Ikkinchidan, O'zbekiston mintaqaviy geosiyosatda o'zining tabiiy resurslari, demografik salohiyati va geografik joylashuvi hisobiga kuchli pozitsiyaga ega. Ko'p vektorli diplomatiya yondashuvi O'zbekistonga barcha yirik kuchlar bilan muvozanatli munosabatlarni saqlashga imkon beradi.



Uchinchidan, mintaqaviy xavfsizlik masalalari faqat mintaqaviy hamkorlik doirasidagina hal etilishi mumkin. O‘zbekiston ushbu hamkorlikda faol ishtirok etib, mintaqaviy barqarorlikning muhim tayanch nuqtasiga aylanishi zarur.

To‘rtinchidan, transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy salohiyatini oshirish va jahon iqtisodiyotiga to‘laqonli integratsiyalashuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

### **Izohlar (Maqola):**

<sup>1</sup> Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: JIDU, 2006. – B. 9–10.

<sup>2</sup> Loughlin O., Heske H. From ‘Geopolitik’ to ‘Geopolitique’ // The Political Geography of Conflict and Peace. – London: Belhaven Press, 1991.

<sup>3</sup> Toynbi A. Tarixni anglash. – Moskva: Progress, 1991. – S. 556–557.

<sup>4</sup> Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – B. 119.

<sup>5</sup> Safoev S.S. Ko‘rsatilgan asar. – B. 148.

<sup>6</sup> Safoev S.S. Ko‘rsatilgan asar. – B. 152.

<sup>7</sup> Rasulov M.F. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – Farg‘ona: Classik, 2023. – B. 3.

<sup>8</sup> Safoev S.S. Ko‘rsatilgan asar. – B. 154.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Hasanov A. Geosiyosat. – [Boku]: [nashr], 2003. – 350 b.
2. Safoev S.S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – Toshkent: JIDU, 2006. – 160 b.
3. Rasulov M.F. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi: O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona: Classik, 2023. – 176 b.



4. Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Barkamol fayz media, 2017. – 292 b.
5. Brzezinski Z. The Grand Chessboard: American primacy and its geostrategic imperatives. – New York: BasicBooks, 1997. – 223 p.
6. Loughlin O., Heske H. From 'Geopolitik' to 'Geopolitique': Converting a Discipline for War to a Discipline for Peace // The Political Geography of Conflict and Peace (ed. by Kliot N., Waterman S.). – London: Belhaven Press, 1991.
7. Toynbi A. Tarixni anglash (Postijenie istorii). – Moskva: Progress, 1991. – 730 s.
8. Humboldt A. de. Asie centrale. Recherches sur les chaines de montagnes et la climatologie compare. – Paris, 1843.
9. History of civilizations of Central Asia. – UNESCO Publishing, Paris, 1996.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 320 b.